



DEVELOPMENT AND PROBLEMS OF THE GENERAL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN IN THE 1950S–1960S (ON THE EXAMPLE OF THE KASHKADARYA REGION)

Ulugbek Tuychievich Ashirov

Head of the Collections Department

State Museum of History and Culture of the Kashkadarya Region

ashiroyulugbek8@gmail.com

Kashkadarya, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: education system, Kashkadarya, school, student, textbook, resource, issue, development, policy, teacher.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: The article analyzes the formation and development of the general education system in the Uzbek SSR during the 1950s–1960s. It examines the policy of compulsory education, the expansion of the school network, and existing problems in educational quality and material support. Using data from the Kashkadarya region, the study evaluates school numbers, student enrollment, and resource shortages. The findings demonstrate that the educational infrastructure established during this period became the foundation for further system improvement.

1950 – 1960 - YILLARDA O‘ZBEKISTONDA UMUMIY TA’LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Ulug‘bek To‘ychiyevich Ashirov

Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi

fond bo‘limi mudiri

asiroyulugbek8@gmail.com

Qashqadaryo, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, Qashqadaryo, maktab, o‘quvchi, adabiyot, resurs, muammo, rivojlanish, siyosat, o‘qituvchi.

Annotatsiya: Maqolada 1950–1960-yillarda O‘zbekiston SSRda umumiy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Unda majburiy ta’lim siyosati, maktab tarmog‘ining kengayishi hamda ta’lim sifati va moddiy ta’minotdagi muammolar

yoritilgan. Qashqadaryo viloyati misolida maktablar soni, o'quvchilar miqdori va resurs yetishmovchiligi statistik manbalar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari mazkur davrda yaratilgan ta'lim infratuzilmasining keyingi bosqichlar uchun poydevor bo'lganini ko'rsatadi.

РАЗВИТИЕ И ПРОБЛЕМЫ СИСТЕМЫ ОБЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1950–1960-Х ГОДАХ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Улугбек Туйчиевич Аширов

Заведующий фондовым отделом

Государственный музей истории и культуры Кашкадарьинской области

ashiroyulugbek8@gmail.com

Кашкадарья, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: образование, Кашкадарья, школа, ученик, литература, ресурсы, проблема, развитие, политика, учитель.	Аннотация: В статье проанализировано формирование и развитие системы общего образования в Узбекской ССР в 1950–1960-х годах. Рассмотрены политика обязательного обучения, расширение сети школ, а также проблемы качества образования и материального обеспечения. На примере Кашкадарьинской области исследованы численность школ, учащихся и дефицит учебных ресурсов на основе статистических данных. Результаты показывают, что созданная в тот период инфраструктура образования стала фундаментом для дальнейшего развития системы.
---	---

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida ta'lim sohasi nafaqat ijtimoiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllandi. Shu bilan birga, tizimning ichki tuzilishi va mazmuni har doim ham zamon talablariga to'liq javob bermas, o'quv dasturlarida ortiqcha nazariy yuklama saqlanib qolgan, amaliyot esa ko'pincha hayot ehtiyojlaridan uzilib ketgan edi. Kasbiy ta'lim mamlakatning real va istiqboldagi iqtisodiy ehtiyojlari bilan to'liq uyg'unlashmagan, pedagog kadrlarning moddiy ta'minoti va malaka tayyorgarligi tizimi yetarlicha samarali bo'lmagan. Boshqaruvda ortiqcha byurokratiya ustuvorligi ilmiy asoslangan prognoz va rejalashtirishning amaliyotga singishiga to'sqinlik qilgan.

Asosiy qism. Shaharlar va ishchi posyolkalarda majburiy yetti yillik ta'lim 1933–1937-yillarda joriy etilgan bo'lsa-da, mamlakat miqyosida to'liq amalga oshirilishi asosan 1950–1956-

yillarda yakunlandi[1]. Shu davrda ta'lim tizimi barqaror yo'lga qo'yilib, har bir bolani maktab ta'limi bilan qamrab olish siyosati izchil ravishda amalga oshirildi. Bu jarayon Qashqadaryo viloyati misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi muxbirining viloyat xalq ta'limi bo'limi mudiri t. I. Xashimov bilan bo'lgan suhbatida keltirilishicha, 1949 yil 1 sentabrga qadar viloyatda jami 465 ta o'rta, yetti yillik va boshlang'ich maktablar faoliyat yuritgan bo'lib, ularda 85 mingga yaqin o'quvchi tahsil olgan. Shu yili 15 ming nafar bola ilk bor maktabga qabul qilingan.

Qarshi shahri hamda Kitob, G'uzor va Qamashi tumanlarida yangi maktab binolari barpo etilgan. Maktablarning o'quv-metodik bazasini mustahkamlash maqsadida 3 ming kitobdan iborat kitobxonalar tashkil etilgan, boshlang'ich maktablarga 700–800 tomdan iborat to'plamlar yetkazilgan. Shu bilan birga, 200 dan ortiq fan kabinetlari yangidan jihozlangan va 250 gektar tajriba maydonlari foydalanishga topshirilgan. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha 276 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi qayta tayyorlov kurslariga, 940 nafar o'qituvchi esa Qarshi pedagogika o'quv yurti qoshidagi zaochniy sessiyaga jalb etilgan[2]. Shu bilan birga, rus tilini o'qitishni takomillashtirish maqsadida ikki oylik kurslar tashkil etilgan. Biroq ayrim tumanlarda, xususan Chiroqchi va Dehqonobodda maktab binolari yetishmasligi, o'quv qurollari va darsliklar tanqisligi kabi muammolar saqlanib qolgan. Shu tariqa, yetti yillik majburiy ta'limning joriy etilishi viloyatda savodxonlik darajasini oshirish, pedagogik salohiyatni mustahkamlash va ta'limni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishda muhim bosqich bo'ldi.

Natija va muhokamalar. Bu jarayon natijasida butun respublika bo'ylab ham ta'lim qamrovi sezilarli darajada kengaydi. 1950–1951 o'quv yilida O'zbekiston SSRda 4952 ta maktab faoliyat ko'rsatib, ularda 1 246 036 nafar o'quvchi tahsil olgan. Ularning 76 foizi (957 ming nafari) qishloq maktablariga to'g'ri kelgan. Biroq shunga qaramasdan, 16 mingdan ortiq bola ta'limdan chetda qolgan bo'lib, ularning 70 foizi qishloq hududlarida istiqomat qilgan.

Bolalarning maktabga bormaslik sabablari quyidagicha bo'lgan:

- ishlab chiqarish yoki kolxozdagi mehnat — 25%,
- maktabdan uzoq yashash — 7,6%,
- kiyim-kechak yetishmasligi, erta turmush qurish va boshqa omillar — 65,5%[3].

1952–1953 o'quv yilida Qashqadaryo viloyatida jami 474 ta maktab faoliyat yuritgan bo'lib, shulardan 15 tasi shaharlarda, 459 tasi esa qishloq hududlarida joylashgan. Ushbu maktablarda tahsil olgan o'quvchilar soni 87 574 nafarni tashkil etgan. Ulardan 7 584 nafar o'quvchi shahar maktablarida, 79 990 nafari esa qishloq maktablarida ta'lim olgan. Mazkur maktablarda umumiy sinflar soni 2 376 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 146 tasi shahar, 2 230 tasi esa qishloq maktablariga to'g'ri keladi[4].

Arxiv manbalaridan ma'lum bo'lishicha, 1954–1955 va 1955–1956 o'quv yillarida O'zbekiston SSRda maktablar uchun sinfdan tashqari o'qish uchun mo'ljallangan kitoblar bilan ta'minlangan maktablar soni sezilarli darajada bo'lgan. Xususan:

1954–1955 o'quv yilida respublika bo'yicha 3 716 ta maktabda sinfdan tashqari kitoblar mavjud bo'lgan;

1955–1956 o'quv yilida esa bu ko'rsatkich 3 747 ta maktabni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati misolida tahlil qilinganda, mazkur ikki yilda:

1954–1955 o'quv yilida 323 ta maktabda,

1955–1956 o'quv yilida 300 ta maktabda sinfdan tashqari o'qish uchun mo'ljallangan kitoblar bo'lgan [5].

Garchi viloyatda maktablar umumiy soni 474 tani tashkil etgan bo'lsa-da, barcha maktablarda sinfdan tashqari kitoblar mavjud bo'lmagan. Bu holat viloyatdagi maktablarning moddiy-texnik bazasi va ta'lim sifatini ta'minlashda hali yetarlicha barqaror emasligini ko'rsatadi. Xususan, sinfdan tashqari o'qish imkoniyatlarining cheklanganligi o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini susaytirishi mumkin edi. Shu bois, maktablarni kerakli adabiyotlar va resurslar bilan ta'minlash masalasi o'sha davr uchun dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, 1950–1960-yillar O'zbekistonda umumiy ta'lim tizimi barqarorlashgan davr bo'lib, mamlakat miqyosida barcha bolalarni maktab ta'limi bilan qamrab olish siyosati izchil amalga oshirildi. Shu bilan birga, ta'lim sifati va moddiy-texnik ta'minot masalalarida muammolar saqlanib qoldi. Qashqadaryo viloyati misolida maktab tarmog'ining kengaygani, biroq o'quv adabiyotlari va resurslar yetishmasligi kuzatildi. Mazkur davrda yaratilgan ta'lim infratuzilmasi keyingi o'n yilliklarda tizimning yanada takomillashuvi uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Постановление СНК СССР и ЦК ВКП(б) О структуре начальной и средней школы в СССР. 15 мая 1934 г. Коммунистическая партия Советского Союза в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК (1898-1986). Т. 6. 1933-1937. — М.: Политиздат, 1985. (95)

2. Закон о семилетнем вообуче в действии. Кашкадарьинская правда , 1949 г.3 сентябр

3. ЦГА РУз, ф.1619, оп 11, д.1472, л.3

4. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA). F.1619, r.11, 8-8-ish, 16-varaq.

5. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA). F.1619, r.11, 8-9-ish, 15-varaq.